

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon davlat universiteti

rektori D.Sh.Xodjayeva

29-avgust 2025 -yil

**BOLALARNING IJTIMOIIY MOSLASHUVI
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo’nalishi:	60110200 – Maktabgacha ta’lim

Fan /modul kodi BIM1105		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	ESTS - Kreditlar 5	
Fan /modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Bolalarning ijtimoiy moslashivi	60		90	150
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – gumanitar bilishning sohasi sifatida ijtimoiy - pedagogika, uning ob'ekti, tadqiqot predmeti va asosiy kategoriyalari haqida nazariy bilimlar berish. Bolani ijtimoiylashtirishning asosiy omillari va qonuniyatlari haqida yaxlit tasavvurlarni shakllantirish. Ijtimoiy - pedagogik faoliyatning o'ziga xosliklari va uning gumanistik yo'nalganligini yoritib berish. Turli yoshdagi bolalar bilan ijtimoiy - pedagogik faoliyat olib borishning asosiy metod va shakllarini o'rganish va amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish. Fanning oldiga qo'ygan vazifalari - talabalarda ijtimoiy pedagogikaning tarmoqlari; ijtimoiy pedagogika umumiy pedagogikaning tarkibiy qismi ekanligi; ijtimoiy pedagogikaning madaniy-tarixiy asoslari, etnografik va falsafiy negizlari; ijtimoiy pedagogikaning jamiyat hayotidagi ahamiyati; sotsial ish metod va texnologiyalari haqidagi bilimlarini shakllantirishdan iborat. Fanning asosiy manbalari sifatida University of Cambridge universitetining (Shaxsiy, ijtimoiy va hissiy rivojlanish) “Personal, Social and Emotional Development” fani mavzularidan, shuningdek, University of Sydney universitetining “Ethics and Social Justice in ECE” fani dasturi mavzularidan faoydalanilgan. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu: Ijtimoiy pedagogika fan sifatida. Ijtimoiy pedagogika ta'rifi, tuzilishi va vazifalari. Ijtimoiy pedagogika tushunchasi. Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Ijtimoiy pedagogikaning sohalari va vazifalari. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari. 2- mavzu: Ijtimoiylashuv tushunchasi jarayoni, vositalari. Ijtimoiylashuv tushunchasi mazmuni. Ijtimoiy tarbiya va uning bosqichlari. Ijtimoiylashtirish-tarbiyaning bosh maqsadi.				

3-mavzu: Ijtimoiylashtirishning omillari va mexanizmlari.

Makro, mikro omillar. Ijtimoiylashtirishning omillari va mexanizmlari. Ijtimoiylashuv jarayonida muhitning o'рни.

4-mavzu: Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining madaniy-tarixiy asoslari.

Ijtimoiy pedagogikani va ijtimoiy-pedagogik faoliyat rivojining metodologik asoslari. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi. O'zbekistonda ommaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanishi va unda bolalarning ijtimoiylashuvi tarixi.

5-mavzu: Tarbiya – ijtimoiy hodisa

Tarbiya – ijtimoiylashtirish omili.

Ijtimoiylashtirish – tarbiyaning bosh maqsadi.

6- mavzu: Bolalik – insonning ijtimoiy hayot me'yorlarini egallay boshlash davri.

Maktabgacha yosh davri – ijtimoiy hayot me'yorlarini egallay boshlash davri. Ijtimoiylashuv omillarining - bola rivojlanishiga ta'siri.

7- mavzu: Pedagogika va ijtimoiy pedagogika kategoriyalari.

Shaxs, rivojlanish, faoliyat, ijtimoiylashuv, jamiyat ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Ijtimoiylashuv jarayoni. Tarbiya va ijtimoiy tarbiya.

8-mavzu: Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o'рни.

Milliy mentalitet va uning ijtimoiylashuvda tutgan o'рни. Mahalla ijtimoiylashuvning an'anaviy omili sifatida. Ijtimoiylashuv jarayonida muhitning o'рни.

9-mavzu: Ijtimoiy muxit bolani tarbiyalashning omili sifatida.

Ijtimoiy pedagogikaning jamiyatda tutgan o'рни. Tarbiya va ijtimoiy tarbiya. Bolaning sotsiumda rivojlanishi.

10-mavzu: Ijtimoiy pedagogik faoliyatda bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari sharoitga moslashuvda pedagogning roli. MTT bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalari.

11-mavzu: Pedagogning oila bilan olib boradigan ijtimoiy faoliyati.

Tarbiyachilar, bolalar va ota-onalarga psixologik-ijtimoiy yordam. Ta'lim-tarbiya rivojlantirish vazifalarini hal etishga ijtimoiy pedagogik yondashuv. Oila bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat olib borish.

12- mavzu: Pedagogning bolalarning ijtimoiylashuvdagi roli.

Ijtimoiylashtirish – bolalar tomonidan guruhda ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarining o'zlashtirilishi, qabul qilinishi va rioya etilishiga rahbarlik, bolalarning ijtimoiylashuvi sohalarini o'rganish va kengaytirish: dam olish vaqtlari, bayramlarni tashkil etishning texnologiyalari.

13-mavzu: Tarbiyachi shaxsida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish metodlari.

Tarbiyachi shaxsida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga oid kasbiy kompetentlikni rivojlantirish.

14-mavzu: Deviant xulq-atvor tushunchasi.

Deviatsiya va uning turlari. Derekvet xulq-atvor turlari. Oila bilan hamkorlikda ishlash

15-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining bolalar bilan ijtimoiy faoliyatdagi munosabati.

Ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyachining kreativ yondashuvi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik prinsiplarga rioya qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarning maqsadini aniq belgilash;
- talabalarning o'qituvchining innovasion pedagogik faoliyatini chuqur bilish imkoniyatlariga qiziqishini uyg'otish;
- talabaga mustaqil ravishda natijalarga erishish imkoniyatini berish;
- talabalarning nazariy va uslubiy tayyorgarligi;
- amaliy mashg'ulotlar nafaqat ma'lum bir mavzu bo'yicha bilim manbai, balki o'quvchilar uchun ham ta'lim manbai hisoblanadi.

1. Ijtimoiy pedagogika fan sifatida.
2. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari.
3. Ijtimoiylashuv tushunchasi jarayoni, vositalari.
4. Ijtimoiylashtirishning omillari va mexanizmlari.
5. Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining madaniy-tarixiy asoslari.
6. O'zbekistonda ommaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanishi va unda bolalarning ijtimoiylashuvi tarixi.
7. Tarbiya – ijtimoiy hodisa

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amalda bajarish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek mavzu bo'yicha ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalarning bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

IV. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ijtimoiy pedagogika fan sifatida.
2. Ijtimoiylashuv tushunchasi jarayoni, vositalari.
3. Ijtimoiylashtirishning omillari va mexanizmlari.
4. Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining madaniy-tarixiy asoslari.
5. Tarbiya – ijtimoiy hodisa
6. Bolalik – insonning ijtimoiy hayot me'yorlarini egallay boshlash davri.
7. Pedagogika va ijtimoiy pedagogika kategoriyalari.
8. Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o'рни.
9. Ijtimoiy muxit bolani tarbiyalashning omili sifatida.
10. Ijtimoiy pedagogik faoliyatda bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirish.
11. Pedagogning oila bilan olib boradigan ijtimoiy faoliyati.
12. Pedagogning bolalarning ijtimoiylashuvidagi o'рни.
13. Deviant xulq-atvor tushunchasi.
14. Tarbiyachi shaxsida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish metodlari.
15. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining bolalar bilan ijtimoiy faoliyatdagi munosabati.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanma materiallar bo'yicha fan boblari va ma'ruzalarni o'rganish;
- tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol oqitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ijtimoiy pedagogikada ishlantirish metodi.

	2. MTT bolalarining moslashuv ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalari. 3. Insonparvarlik tamoyili. 4. Oilaga ijtimoiy pedagogik yordam shakllari. 5. Bola rivojlanishida muhitning ta'siri. 6. Tarbiya va ijtimoiy tarbiya. 7. Tarbiyachi shaxsida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga oid kasbiy kompetentlikni rivojlanishi. 8. Ijtimoiy pedagogikani va ijtimoiy-pedagogik faoliyat rivojining metodologik asoslari. 9. Oila va uning asosiy funksiyalari. 10. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy pedagogik ishlarni tashkil etish. 11. Ijtimoiy pedagogika fanining joriy etilishi. 12. Ijtimoiy pedagogik faoliyat metodlari. 13. Bola rivojlanishida ijtimoiy omillar. 14. Oila, MTT va mahallaning hamkorligi. 15. Oila bilan ishlashning asosiy ish shakllari. 16. Ijtimoiy pedagogika fanining joriy etilishi. 17. MTTning ota – onalar bilan olib boradigan ishlari. 18. Ijtimoiy pedagogik faoliyat turlarining ahamiyati. 19. Ijtimoiylashtirishda xulqi og'ishgan bolalar bilan ish olib borish metodlari. 20. Mahalla institutining bola rivojlanishidagi roli. Talabalarga mustaqil o'rganish uchun mavzular bo'yicha konspekt, referat va prezentasiyalar tayyorlash tavsiya etiladi.
3.	VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: – Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fanining asoslarini, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida belgilangan bolalar faoliyatini to'g'ri tashkil etish mazmunini, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatni ratsional yo'lga qo'yish va tashkil etishga, metodik ishlar tizimini qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'lish mazmuni; to'g'risida bilimga ega bo'lishi; – bolalarni har tomonlama pedagogik, psixologik, estetik, ekologik, huquqiy, mehnat va kasbga doir bilimlarni berish jarayonini tashkil etish, bolalarni ilk va maktabgacha yoshda har tomonlama rivojlantirishning o'ziga xosligini, bolalarni rivojlantirish jarayonida ularni faollikka, tashabbuskorlikka o'rgatish metodlarini amaliy qo'llay olishni bilishi, ko'nikma hosil qilishi;

	- bolalarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, pedagogik va psixologik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan faoliyatni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borish va bola psixologiyasini, fiziologiyasini rivojlantirishda o'z tajriba va malakalarini to'g'ri qo'llay olishni bilishlari va tegishli malakalariga ega bo'lishlari lozim.
4.	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va amaliy topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha topshiriqni test shaklida topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Qodirova F.R, Toshpo'latova Sh.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik. 2. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida.2019 yil 16 dekabr, O'RQ-595-son Qonuni. 3. Esonova M, Maktabgacha pedagogika. T.: 2023 y. Darslik. 4. Золотова В., Психолого-педагогические основы организации общения детей дошкольного возраста, учебник, Кнорус, М-2024 5. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan), T- 2022 y. 6. O'zbekiston Respublikasi Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T.: 2018. Qo'shimcha adabiyotlar 7. Z.T. Nishonova, "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi" o'quv qo'llanma, Toshkent Innovatsiya-Ziyo bosmaxonasi. 2021. 8. G.M.Nazirova, Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi, darslik "BOOKMANY PRINT" Toshkent-2024 9. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 10. 23.09.2020 йилдаги ЎРҚ-637-сонли "Таълим тўғрисида"ги Қонун Axborot manbaalari

	11. http://www.tdpu.uz 12. http://www.ziynet.uz/ 13. https://www.cambridgeinternational.org/programmes-and-qualifications/cambridge-early-years/ 14. https://www.undergraduate.study.cam.ac.uk/courses/education-ba-hons#:~:text=Education%20at%20Cambridge,-Education 15. https://www.sydney.edu.au/handbooks/archive/2023/arts/coursework/education_early_childhood/unit_of_study_table.html?utm_source
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun ma’sullar va dastur mualliflari: G. Nazirova – Qo‘qon DU Maktabgacha ta’lim kafedrasi professori, pedagogika fanlari bo‘yicha PhD. M. Umarova- Qo‘qon DU Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, p.f.n.
9.	Taqrizchilar: N.Sh.Abdullayeva - Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti rektori, DSc, professor. M.X.Tadjiyeva – Toshkent pedagogika kolleji direktori, p.f.n., dotsent